

-Men, men qatnashaman,-desa bo‘ladimi. Hamma kulib yubordi. To‘g‘risi, undan buni kutmagandik.

-Sen –a? Yangilik-ku!-dedi Lazizbek masxaraomuz.

-Men ertaga chizgan rasmlarimni sizlarga albatta ko‘rsataman,-dedi Aziz hayajonlanib. Darhaqiqat, ertasiga u alohida qog‘ozga o‘ralgan papka ko‘tarib keldi. Unda turli xil rasmlar jamlanmasi bor edi.Biz yopirilib, stol ustiga yozib qo‘yilgan katta-kichik qog‘ozlardagi rasmlarni tomosha qila boshladik.

-Ajoyib...shularni o‘zing chizdingmi?-ishonqiramay so‘radik undan. Aziz esa indamay, sumkasidan rangli qalamlar, oppoq qog‘oz chiqardi-da, surat chiza boshladi.Archazor, ortda baland tog‘lar. Cho‘qqilarni o‘xshatib chizdi. Uni tanlovga qatnashmoqchiligini masxara qilganlar endi hayratlanib, uni kuzatardilar...Tanlov kuni Aziz chizgan suratlari bilan maktab tanlovida g‘olib bo‘ldi. Biz endi uni “Yosh musavvir” db atay boshladik U tanlovning keyingi bosqichiga tayyorlana boshladi.

INSONNING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHI VA BU JARAYONDA MOTIVATSIYANING TUTGAN O‘RNI

Ergashova Difuza Uktam Qizi

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va

Adabiyoti

kafedrasining 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Insonning shaxs sifatida shakllanishi jarayoni murakkab va ko‘p qirralidir. Bu jarayonning asosiy omillaridan biri motivatsiyadir, chunki motivatsiya insonning faoliyatini, maqsadlarini va ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi asosiy kuchdir. Motivatsiya insonning o‘z-o‘zini anglash, qobiliyatlarini rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanuvchi shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umuman olganda, inson shaxs sifatida shakllanishidagi motivatsiya faqat harakatni emas, balki shaxsiy xarakter, moral qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni ham shakllantiradi. Ushbu maqolada motivatsiyaning shaxs ongidagi o‘rni, shuningdek, uning shakllanish jarayonidagi usullari va strategiyalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Shaxs, murakkabliklar, motiv, motivatsiya, usullar, shakllanish, ijtimoiy, munosabatlar.*

Insonning shaxs sifatida shakllanishida bir qancha omillar muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagilar:

1. Ta'lim va bilim: Ta'lim shaxsni aqlli, tahlil qila oladigan, va mustaqil fikr yurita oladigan inson sifatida shakllantiradi. Bilimlar insonning dunyoqarashini kengaytiradi.

2. Ijtimoiy muhit: Oila, do'stlar, jamiyat va madaniyat shaxsning xarakteri va qadriyatlari shakllanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Insonlar bir-biridan o'rganadi va ijtimoiy munosabatlar orqali rivojlanadi.

3. Motivatsiya: Ichki va tashqi motivlar shaxsning maqsadlariga erishishida hamda qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

4. Hayotiy tajribalar: Ijobiy va salbiy tajribalar shaxsning xarakterini va munosabatlarini shakllantiradi. Har bir tajriba yangi o'rganish imkoniyatini yaratadi.

5. Shaxsiy qobiliyatlar: Talab va qobiliyatlar, shuningdek, shaxsning ishtiyoqlari uning shaxs sifatida o'zini ko'rsatishiga yordam beradi.

6. Etik va axloqiy qadriyatlar: Shaxsning axloqiy prinsiplari, qadriyatlari va etik me'yorlari uning shaxsiyatini, qarorlarini va ijtimoiy munosabatlarini belgilaydi.

7. Psixologik omillar: Inson psixologiyasi, ichki motivatsiya, o'z-o'zini anglash va shaxsiy taraqqiyot jarayonlari shaxsni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu omillar birgalikda insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin egallaydi va har bir insonning o'ziga xosligini belgilaydi.

O'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni “Men” obrazining yilsayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir. Shaxs sotsializatsiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdik, bola tug'ilishi bilan boshlansada, sezilarli, samaradorlik nuqtai nazaridan uning bosqichlari farqlanadi. Masalan, birinchi bosqich-mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich bo'lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o'qish yillai kiradi. Bu davrdagi sotsializatsiyaning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda, asosan, tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongda singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqichga o'tiladi. Ikkinchi bosqich-mehnat faoliyati davri-bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faoliyatida, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo'lib, aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi

avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo'ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning maxsulidir. Nihoyat, uchinchi bosqich-mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga, asosan, aktiv mehnat faoliyatidan so'ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs sotsializatsiyasi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda ortitilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko'ra shaxs strukturasi ham xususiy o'zgarishlar ro'y beradi. (Zarnigor Alisherova)

Motivatsiya-bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; motiv-bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi sub'ektiv tarzda aks etish demakdir. “Motiv inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqalar motivlar jumlasiga kiradi” (Qabulov Qosimboy Pirjonovich)

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan o'rnini ham sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushintirish uchun psixologiyada “motiv” va “motivatsiya” tushunchalari ishlatiladi. (Yo'ldashova.D.SH.)

Hozirgi kunda motivatsiyaning o'rnini qanchalik ahamiyatli yoki yoshlar hayotida nechog'lik muhim o'rin kasb etmoqda? Bu savollarga javob qidirish maqsadida so'rovnoma o'tkazganimizda, yoshlar biz o'qishimizda hamda ta'lim sifatini oshirishda motivatsiyaning o'rnini katta ekanligini aytib o'tishgan bo'lsa, yoshi katta insonlar esa hozirgi kunda yoshlar o'rtasida o'zini omadsiz va baxtsiz his qilishlariga sabab bu aynan motivatsiyaning yetishmasligi deya ta'kidlashdi. Shu o'rinda Jaloliddin Rumiyni shu gapini eslatib o'tish o'rinli deb hisoblayman. “Hayotda omadsiz, baxtsiz va muvaffaqiyatsiz tushunchalarini o'zi yo'q. Shunchaki hayotda dangasa, loqayd, va e'tiborsiz degan so'zlar bor xolos”. (Saydullayeva Lobaxon & Mannopov Jaloliddin)

Insonning shaxs sifatida shakllanishi murakkab va ko'plab omillar ta'siriga asoslangan jarayon. Ta'lim, ijtimoiy muhit, motivatsiya, hayotiy tajribalar, shaxsiy qobiliyatlar, etik qadriyatlar va psixologik omillar shaxsiy rivojlanishning asosiy unsuridir. Har bir inson o'ziga xos shaxsiyatni rivojlantirishda bu omillardan qanday foydalanishni o'rganish va ularga moslashish orqali o'zini yanada mukammallash uchun imkoniyat yarata oladi. Natijada, bu jarayon shaxsning o'zini anglashida, o'z maqsadlariga erishishda va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Shaxs sifatida shakllanish har bir insonning shaxsiy yuksalishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida asosiy poydevordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Zarnigor Alisherova (2022). “Shaxsni O’rganishning Ijtimoiy Psixologiya uchun O’ziga Xosligi. Ijtimoiy psixologiya va Uning Dolzarb Muammolari”.
- 2.Qabulov.Q.P.(2022). “Psixologiyada Motivatsiya va Motivlarni O’rganish Metodlari”.
- 3.Xudayberdiyeva.S.& Saydullayeva.L&Mannopov.J(2024). “Shaxs Faoliyatida Motivatsiyaning Ahamiyati”.
- 4.Yo’ldasheva.D.SH(2023). “Shaxs Motivatsiyasini Rivojlantirishning Pedagogik, Psixologik Xususiyatlari”.

**YULDUZLAR VA SAYYORALARNI IZLOVCHI – MIRZO
ULUG’BEKNING “ZIJI KO’RAGONIY” ASARINING BUGUNGI
KUNDA TUTGAN O’RNI**

**ИСКАТЕЛЬ ЗВЕЗД И ПЛАНЕТ - МЕСТО «ЗИДЖИ КОРАГОНИ»
МИРЗО УЛУГБЕКА СЕГОДНЯ**

**SEEKER OF THE STARS AND PLANETS - THE PLACE OF MIRZO
ULUG'BEK'S "ZIJI KORAGONI" TODAY**

Toshtemirova Rayxon Zokir qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Xonning kuyovi" unvonini olgan Mirzo Ulug'bekning jahonga tanilgan "Ziji Ko'ragoniy" astranomik asari haqida muhim ma'lumotlar, jahon olimlari tomonidan dunyo akademiyalarida o'ganilishi, tatbiq etilishi va olimlarning asar haqidagi fikrlari to'liq yoritilgan. Shuningdek, "Ziji Ko'ragoniy" asari jahon astronomiya sohasida dasturil amal sifatida foydalanishi aks etgan.

Аннотация: В данной статье собраны важные сведения о всемирно известном астрономическом труде «Зижжи Корагоний» Мирзо Улугбека, получившем титул «зятя хана», его изучении и внедрении мировыми учеными в мировых академиях, а также мнения ученых о работе. Также отражено использование произведения «Зижжи Корагоны» как программного мероприятия в области мировой астрономии.